


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

FARGONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI



**FARG'ONA VILOYATIDA
O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL
TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY
STATISTIK KO'RSATKICHLARI**
(2022/2023- o'quv yili boshiga)





Farg'ona viloyatida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish

va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat – Ta'limning xalqaro standart tasniflagichidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab, YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat





Farg'ona viloyatida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida

ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining

va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.






Akademik litseylar soni va ularning hududlar kesimida taqsimlanishi
(o'quv yili boshiga, birlik)



2023/2024- o'quv yili

2023/2024- o'quv yilida akademik litseylar soni 6 ta 2019/2020- o'quv yiliga nisbatan akademik litseylar soni 8 taga, ya'ni 75 % ga kamaygan.


2023/2024- o'quv yili boshiga ularning eng yuqori ko'rsatkichi Farg'ona shahrida (5 ta) qayd etilgan bo'lsa, boshqa shaharlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Qo'qon shaharida (1 ta) kuzatilgan



Akademik litseylar soni

2023/2024- o'quv yiliga nisbatan o'zgarishi

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni
(o'quv yili boshiga, ming kishi)




Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning soni 1,97 2019/2020- o'quv yili boshiga nisbatan 28,2 ming kishiga, ya'ni 7,0 % ga kamaygan.





**Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning
hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)




O'quvchilar soni

2023/2024- o'quv yiliga nisbatan o'zgarishi

2023/2024- o'quv yili boshida akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning eng katta qismi Farg'ona shahrida (1,7 ming kishi), eng kam qismi Qo'on shaharida (0,3 ming kishi) qayd etilgan. 2019/2020- o'quv yiliga nisbatan eng yuqori salbiy o'sish surati Farg'ona shahrida (- 85,1 %) va Qo'on shaharida (- 111,4%) aks etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning gender taqsimoti
(2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)




2023/2024- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy sonida o'g'il bolalar ulushi 80,3% ni (1,1 ming kishi), qizlar ulushi 100,7% ni (0,8 ming kishi) tashkil etdi.






Akademik litseylarning o'qituvchilari tarkibi (o'quv yili boshiga, kishi)



Farg'ona	149
Qo'qon	5
Quvasoy.	0
Marg'ilon	0
Oltiariq	0
Bog'dod	0
Beshariq	0
Buvayda	0
Dang'ara	0
Quva	0
Qo'shtepa	0
Rishton	0
So'x.	0
Toshloq	0
O'zbekiston	0
Uchko'prik	0
Farg'ona	0
Furqat	0
Yozyovon	0

2019-2023- yillarda akademik litseylarning o'qituvchilari soni yildan yilga kamayib kelgan. O'z o'rnida, 2023/2024- o'quv yili boshida ularning soni 2019/2020- o'quv yiliga nisbatan 112 kishiga, ya'ni 57,9 % ga kamaygan. Akademik litsey o'qituvchilarining eng ko'p qismi Farg'ona shahrida (149 kishi), eng kam esa Qo'qon shahrida (5 kishi) qayd etilgan.

Akademik litseylarning bitiruvchilari (ming kishi)



2023- yil uchun

Farg'ona sh	786
Qo'on sh	99
Quvasoy sh	
Marg'ikon sh	
Oltiariq t	
Qo'shtepa t	
Bog'dod t	
Beshariq t	
Buvayda t	
Dang'ara t	
Quva t	
Rishton t	
So'h t	
Toshloq t	


2023- yilda akademik litsey bitiruvchilari soni 2019- yilga nisbatan 22,9 ming kishiga, ya'ni 3,72 % ga kamaygan






Farg'ona viloyatida professional ta'lim

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)




Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar sonining tahlili texnikumlar ko'payganligi, kasb-hunar maktablari hamda kollejlar esa kamayganligini kuzatish mumkin.

Masalan, 2023/2024- o'quv yili boshida kasb-hunar maktablari soni 2021/2022- o'quv yiliga nisbatan o'zg'armag'an, kollejlar 6 taga kamaygan, texnikumlar soni esa 6 taga ko'payg'an






Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilarning soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)



2021/2022- o'quv yilidan 2023/2024-o'quv yiligacha bo'lgan davrni tahlili kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar sonining o'rishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ushbu davrda ularning soni kasb-hunar maktablarida 13,7 barobarga, texnikumlarda 4,5 barobarga, kollejlarda esa 33,0 % ga pasaygan.

Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining gender taqsimoti (2023/2024- o'quv yili boshiga, ming kishi)



2023/2024- o'quv yili boshida boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan barcha o'quvchilar sonida qizlarning ulushi (97,7%) o'g'il bolalarning ulushiga (95,7 %) nisbatan ko'p bo'lgan.


Agarda professional ta'limning har bir darajasi alohida kuzatilsa, kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'g'il bolalar (95,7 %) ulushi qizlar (97,7 %) ulushiga nisbatan ko'pligini ko'rish mumkin. Kollej va texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar orasida qizlar o'g'il

bolalarga qaraganda ko'proq. Shunday qilib, kollejlarda qizlar ulushi 51,6 % ni, o'g'il bolalar ulushi 22,6 % ni, texnikumlarda esa qizlar 177,8 % ni, o'g'il bolalar 89,3 % ni tashkil qilgan.






**Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining
o'qituvchilari tarkibi
(o'quv yili boshiga, kishi)**



Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida so'nggi uch yil davomida o'qituvchilar soni ko'payganini qayd etish mumkin. Shunday qilib, 2023/2024- o'quv yili boshida ularning soni 2021/2022- o'quv yiliga nisbatan 0,87 % ga oshgan.

**Boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarining
bitiruvchilari
(2023- yil uchun, ming kishi)**







**Kasb-hunar maktablari
soni, birlikda**

Ma'lumot uchun: *Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda, 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.*



2021- yil → 2023- yil

**Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha
taqsimlanishi, birlikda***
(2023/2024- o'quv yili boshiga)



2023/2024- o'quv yili boshida Farg'ona viloyatida 32 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Farg'ona shaharida (2 ta), eng kami — Quva tumanida (1 ta) qayd etilgan.


**shu jumladan madaniyat va san'at maktablaring qo'shgan holda*





**Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan
o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi
(o'quv yili boshiga)**

**Hududlar bo'yicha
2023/2024- o'quv yili boshiga**



2023/2024- o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida 27,9 ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Beshariq tumanida – 2,4 ming nafar, eng kami So'x tumanida – 0,5 ming nafar.



**O'g'il
bolalar
20,7 %**



**Qiz bolalar
7,2 %**




Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar 100 foiz deb olinsa, ularning 7,2 foizini qizlar, 20,7 foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.






**Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan
o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)



■ 2023/2024 ■ 2022/2023

FARG'ONA VILOYATIDA



2023- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2022- yilga nisbatan **381** nafarga yoki **126,9** barobarga ko'payib.

Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Beshariq tumani – **177** nafar, eng kami – Furqat tumanida – **21** kishi qayd etilgan.

